

XV-XVI ASRLARDA O'RTA OSIYODA FOYDALANILGAN QUROL-ASLAHALAR

**Maqsudbek Akramjonov**

*NamDPI magistranti*

[maqsudbekakramjonov2@gmail.com](mailto:maqsudbekakramjonov2@gmail.com)

+998933020339

**Islomjon Temirov**

*Mustaqil tadqiqotchi*

[islomjontemirov@gmail.com](mailto:islomjontemirov@gmail.com)

+998939461699

**Abstrakt:** *Ushbu maqola XVI asrda Movarounnahr qo'shinlarida qo'llangan qurol-yarog'lar va harbiy jihozlar haqida muhim ma'lumotlarni yoritadi. Harbiy tarixga oid yozma manbalar tahlili asosida o'sha davrda foydalanilgan jang qurollari, himoya vositalari, o'tochar qurollar va artilleriya tizimining rivojlanishi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada Shayboniylar va Temuriylar qo'shinlarining jangovar qurollanish tizimidagi o'xshashlik va farqlar ko'rsatilgan. Harbiy vositalarning mahalliy ishlab chiqarilishi, ularning tashqi davlatlardan olib kelingan shakllari ham muhokama qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Movarounnahr, Xuroson, Temuriylar, Shayboniylar, to'plar, o'tochar qurollar, artilleriya, muguz, sovut.*

Harbiy sohaning muhim jihati turli darajadagi janglar, to'qnashuvlar va yirik urushlarni muvaffaqiyatli olib borishdan iborat. Bunda jang vositalari, ya'ni qurol-yarog'lar va ulardan ustalik bilan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. XVI asr boshlarida ikki siyosiy dushman temuriylar va shayboniylar qo'shini o'rtasidagi to'qnashuvlarni yoritgan har ikkala tomonga mansub muarrixlar o'z asarlarida ular orasida alohida tafovutlar mavjudligini qayd etishmaydi. Har ikki qo'shin ham o'q-yoy, qilich, shashpar (olti qirrali gurzi), govсар (ho'kiz boshli gurzi), xanjar, nayza, bolta, to'p, to'fang, to'ra (tanani to'liq yopadigan odam bo'yi qalqon) deb ataluvchi qalqonlar bilan qurollangan. Tanasining turli qismlari sovut, dubulg'a va javshanlar (metall nimcha) bilan muhofaza qilingan. XVI asrda Movarounnahr qo'shinlari foydalangan va janglarda qo'llagan qurol-yarog'lar va aslahalar sodda bo'lib, ularni funksiyasi hamda qo'llanish maqsadiga ko'ra bir necha guruhga bo'lish mumkin:

- 1) Sovuq qurollar;
- 2) o'q otar qurollar;
- 3) jangchining tanasini himoya qilishga mo'ljallangan himoya vositalari;
- 4) yordamchi aslahalar.



Sovuq qurollar. Jangda zarba berish uchun mo'ljallangan qadimiy qurol-cho'qmordan ham foydalanilgan. Uning bir uchida tasma yoki zanjir bilan osilgan metall soqqa, ikkinchi uchida esa, qo'lga taqiladigan ilmog'i bo'lib, o'zi qisqa tayoq shaklida bo'lgan. Janglarda qilichning ahamiyati katta edi. Bobur qilichni o'z davridagi barcha quroldan ustun qo'yib, shunday ta'riflaydi: "shashpar (olti qirrali gurzi), cho'qmor, kestan, tabarzin va bolta tegsa bir yerga ta'sir qiladi: agar qilich tegsa - boshdan oyoqqacha kesadi".<sup>36</sup> Fazlulloh ibn Ro'zbehxonning yozishicha, Bobur doimo qilich va qalqon bilan qurollanib yurgan. Buxoro qo'shinining deyarli barchasi xanjar va qilich bilan ta'minlangan. Qilichlar yoysimon shaklda bo'lib, ularning uzunligi jangchining beli baravarida bo'lgan. Hofiz Tanish Buxoriy Abdullaxon ibn Iskandarxon askarlarining aksariyati Yaman qilichi bilan qurollanganligi haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari, harbiy boltalardan ko'pincha qal'alar qamali chog'ida darvoza qulflarini buzishda foydalanilgan. Jang boltalari tabarzin deb atalib, ular oddiy boltalardan dastasi uzunligi bilan farq qilgan.

Qo'shinda nayza ham asosiy qurollardan biri hisoblangan. Asrlar davomida ularning shakli ayrim o'zgarishlarga uchrab, takomillashib borgan. Ular asosan tekislikda, yuzma-yuz jang chog'ida qo'llanilgan. Nayzalarning uzunligi odam bo'yidan balandroq bo'lgan hamda uning dastasi qayin yog'ochidan, uchi esa temir va po'latdan ishlangan. Buxoro qo'shinida "xatti nayza" deb atalgan nayza turi keng tarqalgan bo'lib, ular uzun va to'g'ri dastali bo'lgan. Arabiston yarimorolidagi Xatti manzilida ishlab chiqarilgan to'g'ri nayzaga qiyosan, barcha to'g'ri dastali nayzalar shu nom bilan yuritilgan. Yozma manbalarda qayd etilishicha, o'q va kamon eng asosiy jang qurollari sirasiga kirgan. Bu davrda kamonning asosi tashqi tomondan chandir, ichki tomondan silliq muguz (ho'kiz shoxi) yopishtirilgan yog'ochdan iborat bo'lgan. Shu bilan birga, kamonlarning murakkab ega tuzilishga turlari ham mavjud bo'lgan. Manbalarda ovda alohida, jangda alohida o'qlar ishlatilishi haqida ma'lumotlar uchraydi.

Kamon va o'q qo'lda ko'tarib yuriladigan o'qotar qurollar qatorida qo'llanishda davom etishining sababi shundaki, ilk davrlarda to'fang kamdan-kam hollarda kamondan ustunlik qilgan. Kamon va o'qlarni olib yurish uchun ustalar sadoq (bu davrda zihdon deb atalgan) yasaganlar. Aslzodalarga mo'ljallangan sadoqlar qimmatbaho charmdan tayyorlangan. Ma'lumki, kamondan otish uchun o'q uyacha (kamgak) vositasida ipga o'rnatilgan. O'qlar turli shaklda bo'lib, yog'och, poynak qush patidan yasalgan o'qlar keng tarqalgan. Yog'och o'qlar turli daraxtlardan tayyorlangan, jumladan, manbalarda qayindan, xadang (oq qayinga o'xshash qattiq daraxt, bu davrda undan o'q va arava g'ildiraklari yasalgan) yog'ochidan yasalgan o'qlar tilga olinadi. O'q uzish uchun barmoqlarga maxsus angishvonasimon zehgilar taqilgan. "Abdullanoma" asarida Dashti Qipchoq askarlari uch

---

<sup>36</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Т.: Тошкент: Ўқитувчи, 2008. Б, 89.



paykonli kamondan bir ip tortishda uchtadan o'q uzishi haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Bunday kamonlar odatda tekislikdagi janglar chog'ida, raqiblar hali bir-biriga baqamti kelmagan vaziyatlarda qo'l kelgan. Neftga shimdirilgan matoni o'qqa o'rab, yondiruvchi o'qlar ham tayyorlangan. Qamaldagilar qal'a devorlaridan turib qamal qiluvchilarni o'qqa tutish uchun ulardan foydalanganlar. Qamal qilayotganlar esa, qamalga olingan shaharda yong'in chiqarish maqsadida yondiruvchi o'qlarni otganlar.

Shuningdek, o'qotar qurollar - taxshlar ham qo'llanilgan. U yog'och qo'ndoqqa o'rnatilgan po'latdan ishlangan va kamon ipi chig'ir bilan tortilgan. Miltiqqa o'xshab otilgan va uning o'qi kamon o'qidani qisqa bo'lgan. Taxsh otuvchilar taxshandoz deyilgan. Lekin taxshandozlar XVI- XVII asrlardagi harbiy to'qnashuvlarning ishtirokchilari sifatida nisbatan kam hollarda tilga olinadi. Bu davrda o'tochar qurollarning keng yoyilishi va takomillashuvi bilan chopadigan va otadigan qurollarning xususiyati ham o'zgarib bordi. O'q kiyim-boshni nisbatan oson teshib o'tgani tufayli uning shakli bir necha marta o'zgargan. Lekin XVI asrda ham oldingi asrlarda ma'lum bo'lgan qurol va qalqonlardan foydalanishda davom etilgan. Yoyandozlar esa, miltiq qo'llana boshlagandan keyin ham, qo'shinning asosiy tayanchi bo'lib qolavergan<sup>37</sup>.

Muhammad Solih bergan ma'lumotlarga qaraganda, Shayboniyxon qo'shinlari Samarqandni uzoq muddat qamal qilgan paytda (1501) shaharni himoya qilib turgan Bobur askarlarida to'fang va ra'dlar bo'lgan. Ammo "Boburnoma"da bu qurol ilk bor 1518-yil voqealari bilan bog'lab tilga olinadi. Ma'lumki, 1508-1518-yillardagi voqealar "Boburnoma"dan joy olmagan. Shunday ekan, to'fangning Bobur qo'shinida ilgariroq bo'lganligini ta'kidlovchi Muhammad Solih va Muhammadiyor ibn Arab Qatag'on so'zlariga ishonsa bo'ladi. Muhammad Solih bergan ma'lumotlarga qaraganda, Shayboniyxon qo'shinlari Samarqandni uzoq muddat qamal qilgan paytda (1501) shaharni himoya qilib turgan Bobur askarlarida to'fang va ra'dlar bo'lgan. Ammo "Boburnoma"da bu qurol ilk bor 1518-yil voqealari bilan bog'lab tilga olinadi. Ma'lumki, 1508-1518-yillardagi voqealar "Boburnoma"dan joy olmagan. Shunday ekan, to'fangning Bobur qo'shinida ilgariroq bo'lganligini ta'kidlovchi Muhammad Solih va Muhammadiyor ibn Arab Qatag'on so'zlariga ishonsa bo'ladi. XVI asrdan boshlab Movarounnahr hududida keng tarqalgan to'fanglar yog'och va metalldan ishlangan bo'lib, ular mahalliy sharoitda ishlab chiqarilmagan. To'fang Movarounnahrda Safaviylar va Usmoniylar davlati hududlaridan keltirilgan. "Mir'otul mamolik" ("Mamlakatlar ko'zgusi") asari muallifining so'zlariga ko'ra, Toshkent xoni Navro'z Ahmadxonga Turk sultoni 300 ta miltiq bilan qurollangan yanichar (yangi cherik)larni yuborgan. Uning ta'kidlashicha, Buxoro qo'shinlaridagi miltiqlar misdan quyilgan bo'lib, Seydi Ali Raisdan 40 ta temir miltiq olib qo'yilganligi aytiladi. Turon

<sup>37</sup> Elboboyev Y. Amir Temur harbiy siyosatining mohiyati va qo'shin tuzilishi// Journal of advanced research and stability. ISSN: 2181-2608



hududida harakat qilgan lashkarlarning to'fangni muntazam qo'llashi XVI asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Shunga muvofiq, bu davrga kelib, nili (stvoli) misdan qilingan to'fanglar haqida eslatiladi. Usmonli sultonlar bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra, yollanma turk mashshoq (harbiy muhandis)lari Abdullaxon va ashtarxoniyalar davrigacha qo'shinlarni zamonaviy usulda jangga tayyorlash mashqlarini tashkil etishgan, qurollar esa Turkiyadan keltirilgan. Manbalar tadqiq etilganda, Abdullaxon ibn Iskandarxon davrida quyilgan to'plarga nomlar berilganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, Balxdan keltirilgan "Qora bug'a", Movarounnahr o'lkalarida quyilgan "Oqburyo to'pi", "Qubbali qozon (to'p)", "Jahongir qozoni", "Qora bahodir qozoni" singari to'plar shular jumlasidandir. "Boburnoma" asarida ham Hindistondagi janglardan birida Bobur tomonidan kofirlarga qarshi jangga kiritilgan bir to'pga "G'oziy to'pi" nomi berilganligi aytiladi. "Musaxxir al-bilod" muallifi Abdullaxon davrida to'p yasash va otish bilan shug'ullangan maxsus shaxslar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Qo'shinda Ustod Ruhiy ismli to'pchil harbiy muhandis bo'lib, uning boshchiligida zambaraklar yasalgan va undan qal'alar shturm qilingan. Ustod Ruhiy Abdullaxonning deyarli barcha janglarida, ayniqsa, qal'alar qamalida oldingi safda turib, to'pchiboshilik qilganligi bir necha marta eslanadi.<sup>38</sup>

Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, XVI asrda Movarounnahrda harbiy harakatlarda artilleriya to'pi - zambaraklardan foydalanilgan va mahalliy ustalarning o'zlari zambaraklar yasay boshlagan. Otish oldidan nilga (stvolga) zarur vaziyat yaratish va otish vaqtida otilgan o'tni yutish hamda bunda vujudga keladigan og'irlikni yerga uzatish uchun to'p maxsus moslama (yoki aroba)ga o'rnatilgan. Arobalarga uchyoq - sepoyalar ham o'rnatilgan. Buning uchun arabalar bir-biriga biriktirilgan. Shu davrga oid miniatyuralarda to'plar asosan to'rt g'ildirakli bo'lganligi hamda ularning g'ildiragi yog'ochdan yasalganligini ko'rish mumkin.

To'p quyuvchi ustalar rextagar deb atalgan. Ish jarayonida ular yordamchi ishchi kuchidan foydalanishgan. XVI-XVII asrlarga oid manbalarda ko'rsatilishicha, Buxoroda bir necha rextagarlar bo'lgan. Rextagarlar mis va qo'rg'oshin qotishmasidan iborat bronzadan turli uy- ro'zg'or buyumlarini ham yasaganlar. XVI asr oxirlariga kelib, artilleriya to'plarini yasash nisbatan tako- millasha boshladi. To'plar mustahkamlashib, ularning o'lchovi esa ko'p yoki kam darajada bir xillik kasb eta bordi. Abdullaxon buyrug'i bilan 1587-yilda Gavharshod masjidida Ilirot qal'asi qamali uchun quyilgan har yetti to'pdan biri 2-3 botmon (1 botmon taxminan 20-30 kg.) og'irlikdagi toshni otar edi. XVI asrning birinchi choragida to'pni uni quygan ustaning o'zi otgan. Ammo Hofiz Tanishning bir yo'la yettita to'p quyilganligi haqidagi ma'lumoti XVI asr oxirlaridan to'p quyadigan usta, asosan, to'p yasash

<sup>38</sup> Zamonov A. Buxoro xonligi qo'shinida qurol-yarog'lar ta'minoti (xvi asr)//SamDU ilmiy axborotnomasi. 2(102/1), 2017. – T.: SamDU bosmaxonasi. – B.19



bilan mashg'ul bo'lgan va faqat ayrim hollardagina o'zi undan otgan, degan xulosaga olib keladi.

Bundan tashqari, tosh arroda deb nomlangan zambarak turi bo'lib, u to'rtta g'ildirakka o'rnatilgan hamda qal'alar devorini shturm qilishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan va o'sha davr Buxoro o'lchov birligi bo'yicha bir botmon (20- 30 kg.) toshni ota olgan. Shunday bo'lsa-da, artilleriya to'plari ishlab chiqarishda muayyan siljishlar sodir bo'lgan. Shu bilan birga, zarbzan, ra'd, zambarak, manjaniq, toshotar va boshqa avvalgi asrlarga mansub qurollar ham baravar ishlatilgan, devor teshadigan hamda otadigan texnika va artilleriyalardan foydalanilgan.

Yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, Buxoro xonligi jangchilarining deyarli hammasi qurol-aslaha va harbiy kiyim-bosh bilan ta'minlangan. Shunday bo'lsa-da, dastlabki paytlarda Movarounnahrda endigina kirib kelgan Dashti Qipchoq askarlarining hammasida ham sovut va himoya kiyimlari bo'lmagan. Oddiy jangchilar metall jang liboslarini xarid qilish imkoniga ega bo'lmaganliklari tufayli charm, namat va paxtadan o'zlarini himoya qiluvchi kiyimlar tayyorlaganlar.<sup>39</sup> Muhammad Solihning guvohlik berishicha, shayboniy sultonlari lashkari safidagi sovutsiz jangchilar o'z tanasini kigiz bilan o'rab himoya qilishgan. Xonlikdagi nomdor jangchilarning himoya aslahalari turli xildagi halqa- parchinli sovutlar, yumaloq dubulg'alar, tirsakbandlar, oyoqlarini himoya qiluvchi vositalar va qalqonlardan iborat bo'lgan. Hunarmandlar tomonidan tayyorlangan qalqonlar ham turli-tuman ko'rinishda, ranglari ham turlicha bo'lgan. O'zbekiston muzeylarida O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi, (Samarqanddagi Toshkentdagi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi) ham charm qoplangan yog'och, shuningdek, charm va metalldan yasalgan qalqonlar mavjud. Charm qalqonlar ko'pincha rang-barang naqsh solingan halqa shaklidagi metall qoplama bilan mustahkamlangan. Charm qalqonlarning aksariyati qora rangga bo'yalgan, faqat ayrimlaridagina qizil bo'yoq izlari ko'zga tashlanadi. Sovut va zirhlar (jiba, sovut, javshan, baktar) jangchi tanasini o'q- yoy va o'tochar qurollardan himoya qilgan. Sovut metall simlardan to'qilib, ichki tomoni yumshoq mato bilan qoplangan. Bu davrda baktarlar, ko'krakpo'sh va yelkapo'shlar sovutlarning keng tarqalgan turlariga mansub bo'lib, ular parchindan 3-9 qator terib tayyorlangan. Temir sovutlar oftobda tez qizib ketganligi bois, uning ichidan maxsus kamzul hafton kiyilgan. Shayboniyar qo'shini boshqalardan ajralib turishi uchun haftonlari odatda to'q qizil rangda bo'lgan. Sovut yoy yoki to'fang o'qidan himoya qila olmasa-da, qilich, bolta, xanjar singari kesuvchi qurollarga qarshi himoya vazifasini o'qlariga Yoy, o'tagan. Yoy, to'fang qarshi kiyiladigan javshanlar (temir nimcha), asosan, temir va po'latdan yasalgan.<sup>40</sup>

<sup>39</sup> Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova. O'zbekiston tarixi. – T.: Iqtisod-moliya, 2016. – B.172

<sup>40</sup> Zamonov A. buxoro xonligi qo'shinida qurol-yarog'lar ta'minoti (xvi asr)//SamDU ilmiy axborotnomasi. 2(102/1), 2017. – T.: SamDU bosmaxonasi. – B.22



Shayboniylar qo'shinida Xitoy javshani bilan ta'minlangan askarlar ham ko'pchilikni tashkil qilgan. Tana muhofazasi uchun xizmat qilgan yana bir libos - baktardir. Baktar ham javshan singari temirdan yasalgan va har ikki tomoni baxmal bilan qoplangan. Shu singari zirhli liboslar bilan jangga kirishning ahamiyati katta bo'lgan. Manbalarda urushlardan birida zirhli kiyimsiz jangga kirilganidan ancha odam nobud bo'lib, ko'pchiligi yaralanganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Abdullaxon qo'shinida uzoq yillar to'pchiboshi lavozimida xizmat qilib, aksariyat janglarda g'alabaga o'z hissasini qo'shgan Ustod Ruhiy 1579-yilgi janglardan birida “urush kiyimini kiymay jangga kirganligi uchun” nayza zarbidan halok bo'lgan<sup>41</sup>. Qo'shinda chapar (sipar) va to'ralar ham mavjud bo'lib, ulardan mudofaa va qamal janglarida qalqon sifatida foydalanilgan. Chapar aksariyat hollarda mudofaa janglarida, okop (maxsus mudofaa o'ralari) oldiga qo'yilib, uning ortidan o'q uzishga mo'ljallangan va u ko'pincha simdan to'qilgan. Ba'zan chaparlar bir-biriga bog'lanib, dushman o'qi va toshlaridan himoya qiladigan to'siq yasalganki, chapar shunday to'siq ma'nosida ham qo'llaniladi. To'ra esa, odam bo'yi baravar keladigan, yog'ochdan yasilib, usti to'qilgan sim bilan qoplangan qalqondir. U qamal paytida mudofaachilar o'qlari, otilgan tosh, g'isht va boshqa zarbalardan himoyalaniib, hujumga o'tishga mo'ljallangan o'ziga xos himoya to'sig'idir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, to'ra singari yirik qalqonlar piyodalar uchun, kichik qalqonlar esa otliqlar uchun mo'ljallangan.

Askarlarning boshlarini ham metall aslaha dubulg'a himoya qilgan. Dubulg'a turli shaklda bo'lib, temir yoki po'latdan ishlangan hamda ichkarisiga kigiz qoplangan. Yuqori tabaqaga mansub sarkardalar oddiy harbiylar askarlarnikidan farqli, uchi uzun, jezdan yasalgan dubulg'alar xudlar kiyib jangga kirganlar. Qo'shinning asosiy jangovar qismini suvoriylar tashkil qilganligi bois, urushlarda muhim rol o'ynovchi otlar himoyasiga katta e'tibor berilar edi. O'q o'tmasligi va qilich chopmasligi uchun otlar ustiga maxsus yopinchiq-bargustivon (kejim) yopishgan. Ular, asosan, temir simlardan to'qilgan va bir qismi Movarounnahrda Yevropadan keltirilib, "farangiy" deb yuritilgan. Bunday yopinchiqlar, asosan, qo'shin boshliqlarining otlariga yopilgan.

Qadimdan harbiy yurishlar chog'ida tuyalar karvonida harbiy aslahalardan tashqari, jang, qamal, mudofaaga ko'maklashadigan buyumlar ham doimiy ravishda olib yurilgan. Askarlar o'z uylaridan oylab, hatto yillab olisda bo'lganligidan, maishiy hayotda zarur bo'lgan buyumlar ta'minoti ham ularning o'z zimmasida bo'lgan. Harbiy aslahalaridan tashqari, ularning chodiri, echki yoki qo'y terisidan qilingan po'stagi, ko'rpa-to'shagi va boshqa maishiy asboblarga mo'ljallangan maxsus qopi partol deb atalgan. Harbiylarning ko'chma omborida suzishda foydalaniladigan sol, qal'a qamali uchun turli uzunlikdagi narvonlar, qop, ketmon, kurak, arra, o'roq, bolta, bigiz, qozon, arqon, mesh, tarozi singari buyumlar mavjud bo'lgan. Ko'chma ombor qur deb atalib, unda zaxira qurollar ham bo'lgan

<sup>41</sup> Mo`minov X, Shamsutdinov R. O`zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2013. B:373.



va ularning ustidan oftob nuri, yomg'ir va qordan himoyalash uchun qurpo'sh yopishgan. Manbalarda qurning muhofazasiga alohida ahamiyat berilganligi va uning javobgarligi qurchi yoki qurboshi deb atalgan mansab egasiga yuklatilganligi aytiladi.

Qal'alar qamali chog'ida belkuraklar, ko'plab ko'zalar, echki va qo'y terisidan qilingan solar (daryodan suzib o'tish uchun), har xil o'lchamdagi shotilar, pishgan g'ishtlar, jang boshlanishi yoki qo'shinni orqaga qaytarish xabarini anglatuvchi musiqa asboblari (karnay, surnay, dovul, nog'ora) va boshqa yordamchi harbiy aslahalardan foydalanish vazifasi bevosita askarlar zimmasida bo'lgan. Qo'shin ortidan doimiy ravishda ug'ruq xon va sultonlarning oila a'zolari va ularning anjomlari, shuningdek, zarur zaxira ortilgan maxsus karvon yurgan bo'lib, ularni qo'riqlaydigan alohida harbiy qism ham mavjud bo'lgan. Ug'ruqda chodir, saroparda hamda xon va uning oilasi uchun mo'ljallangan turli asbob-uskunalar bo'lgan. XVI asrda Buxoro xonligining yaxshi tashkil etilgan va butlangan qo'shinida harbiy qurollarning 30 ga yaqin turi mavjud bo'lgan va harbiylarning barchasi harbiy aslahalar bilan to'la-to'kis ta'minlangan. Askarlarning deyarli hammasi o'z shaxsiy qurol-yarog'i - xanjar va o'q-yoy bilan ta'minlangan hamda ulardan foydalanishni puxta va sifatli egallagan. Tez-tez uyushtiriladigan ov-shikorlarda ham asosan o'q-yoy qo'llanilgan. XVI asrdan boshlab o'tochar qurollar takomillashtirilib, ularning bir qancha turlari yaratildi. Bu davrda bir qator kichik to'plar (arroda, zarbzan) paydo bo'lib, ular qo'llanilishi jihatidan Amir Temur davridagi to'plardan tekisliklardagi janglarda ham foydalanishga qulay bo'lganligi bilan farq qilgan. Shu tariqa, harbiy qurollarning takomillashuvi bilan jang usullari ham o'zgarib bordi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Elboboyev Y. Amir Temur harbiy siyosatining mohiyati va qo'shin tuzilishi// Journal of advanced research and stability. ISSN: 2181-2608
2. Mo'minov X, Shamsutdinov R. O'zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2013. B:671.
3. Usmonov Q, Sodiqov M, Burxonova S. O'zbekiston tarixi. – T.: Iqtisod-moliya, 2016. B: 496.
4. Zamonov A. Buxoro xonligi qo'shinida qurol-yarog'lar ta'minoti (XVI asr)//SamDU ilmiy axborotnomasi. 2(102/1), 2017. – T.: SamDU bosmaxonasi.
5. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. –T.:Toshkent, 2021. B: 321.
6. Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. –Т.: Адолат, 2007. 154 бет.

